



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

QORAQALPOG'ISTONDA KOLLEKTIVLASHTIRISH SIYOSATI TARIXI

Qidirbaeva Mavluda Kalbaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada 1920–1930-yillarda Qoraqalpog'iston hududida amalga oshirilgan sovet kollektivlashtirish siyosati va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kollektivlashtirish jarayonining tarixiy shart-sharoitlari, uning amalga oshirilish mexanizmlari hamda mahalliy aholining turmush tarziga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligini majburiy ravishda jamoalashtirish jarayonida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar, mulkni musodara qilish holatlari, aholi migratsiyasi hamda an'anaviy xo'jalik tizimining o'zgarishi kabi masalalar tahlil etiladi. Maqolada kollektivlashtirish siyosatining Qoraqalpog'iston jamiyatining ijtimoiy tuzilmasi, iqtisodiy rivojlanishi va demografik holatiga ko'rsatgan ta'siri tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu davr tarixini chuqurroq anglash hamda sovet davridagi agrar siyosatning mintaqaviy xususiyatlarini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kollektivlashtirish, quloqlar, kolxoz, qishloq jamiyati, repressiyalar, sovet partiya apparati.

ИСТОРИЯ ПОЛИТИКИ КОЛЛЕКТИВИЗАЦИИ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Кидирбаева Мавлуда Калбаевна

Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируется политика советской коллективизации, проводившаяся в Каракалпакстане в 1920–1930-е годы, а также её социально-экономические последствия. В исследовании рассматриваются исторические предпосылки коллективизации, механизмы её реализации и влияние на традиционный образ жизни местного населения. Особое внимание уделяется процессу принудительного объединения сельских хозяйств, конфискации имущества, экономическим трудностям, миграционным процессам и трансформации традиционной хозяйственной системы. На основе исторических источников и научной литературы раскрывается влияние политики коллективизации на социальную структуру общества, экономическое развитие и демографические процессы в регионе. Полученные результаты позволяют глубже осмыслить исторические процессы данного периода и определить региональные особенности аграрной политики советской власти.

Ключевые слова: коллективизация, кулаки, колхоз, сельское общество, репрессии, советский партийный аппарат.

THE HISTORY OF THE COLLECTIVIZATION POLICY IN KARAKALPAKSTAN

Qidirbaeva Mavluda Kalbaevna

Berdakh Karakalpak State University, Doctoral Researcher

Abstract

This article analyzes the Soviet collectivization policy implemented in Karakalpakstan during the 1920s–1930s and its socio-economic consequences. The study examines the historical prerequisites of collectivization, the mechanisms of its implementation, and its impact on the traditional lifestyle of the local population. Particular attention is given to the process of forced

collectivization of agriculture, confiscation of private property, economic difficulties, migration processes, and the transformation of traditional economic systems. Based on historical sources and scientific literature, the article highlights the influence of collectivization on the social structure of society, economic development, and demographic changes in the region. The research findings contribute to a deeper understanding of the historical processes of the period and reveal the regional characteristics of Soviet agrarian policy.

Keywords: collectivization, kulaks, kolkhoz, rural society, repressions, Soviet party apparatus.

1920-yillardan boshlab Sovet Ittifoqida qishloq xo'jaligini transformatsiya qilish, sanoatlashtirish va ideologik o'zgartirishlar kompleksini amalga oshirish maqsadida turli siyosiy tadbirlar olib borildi. Ushbu jarayonning eng muhim qismi – kollektivlashtirish siyosati bo'lib, u dehqonchilik xo'jaliklarni qo'shma kolxozlar shaklida birlashtirishga qaratilgan edi. Qoraqalpog'istonda bu jarayon boshqa mintaqalarga nisbatan ayrim xususiyatlarga ega bo'ldi, chunki mahalliy jamiyatning an'anaviy tizimlari, boylar va din idoralari hanuz kuchli ta'sirga ega bo'lgan.

Sovet hukumati qishloq xo'jaligini Lenin kooperativ rejasi asosida tubdan qayta qurish vazifasini oldi. Qoraqalpog'istonda, shu kabi boshqa hududlarda ham, kichik xo'jaliklar birlashtirilib, ilmiy va texnik yutuqlardan foydalanishga qodir katta sotsialistik xo'jaliklarga aylantirilishi lozim edi. 1927–1928 yillarda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti 1913 yilga nisbatan 113% ga yetgan, tovar qismi esa 157,3% ga o'sgan. Bu hududning kolxoz harakatini rivojlantirishga tayyor ekanligini ko'rsatadi [1].

1926–1930 yillarda Qoraqalpoq partiya tashkilotlari saflari tozalangan, 30 mingdan ziyod kishi partiya, sovet va kooperativ organlaridan chiqarilgan. Partiya a'zolari soni 1926 yilda 1 773 kishi bo'lgan bo'lsa, 1930 yilda 2417 kishiga yetgan [4]. Komsomol va “Qo'shchi” ittifoqi ham kengaygan. Bu choralar partiya rahbarligini mustahkamlab, dehqonlarni kooperativ va kolxoz vazifalariga safarbar qilish imkonini bergan.

Qoraqalpog'istonda kollektivlashtirish davri 1927–1932-yillar oralig'ida amalga oshirildi. Bu jarayon bir vaqtning o'zida quloqlarga qarshi siyosat, partiya va sovet apparatidagi tozalashlar hamda qishloq jamiyatining transformatsiyasini o'z ichiga oldi. Arxiv hujjatlari va mahalliy nashrlar ko'rsatadiki, bu davrda kollektivlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy jarayon sifatida ham ahamiyatli bo'lgan.

Sovet hukumati kollektivlashtirishni ijtimoiy va iqtisodiy talablar natijasi sifatida ko'rdi. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi individual xo'jaliklardagi moliyaviy va texnika bazasini to'plab, qishloqlarda markazlashgan, dasturlanadigan kolxoz va sovxoz tizimini yaratish edi.

1928–1929 yillarda Qoraqalpog'istonda 13 ta iste'molchi birlashmasi, 1929–1930 yillarda esa 58 ta artel tashkil etilgan. Kooperativ tarmoq kolxozlashtirish jarayonida muhim vosita bo'lgan. Shunga qo'shimcha ravishda zamonaviy qishloq xo'jaligi mashinalari: plug, borona, kultivator va traktorlar qo'llanilgan. Agro va zootexnik punktlar soni 20 tadan 24 taga oshirilgan. 1928–1929 yillarda xo'jaliklar uchun mashina xarid qilishga 235 ming rubl kredit berilgan bo'lsa, 1929–1930 yillarda bu summa 795 ming rublga yetgan [1].

1929 yil 1 iyunda SSSR CIK va SNK “davlat apparati, kooperativ va jamiyat tashkilotlarini tozalash” to'g'risida qaror qabul qildi, bu esa davlat va partiya apparatlarida ikkinchi bosqich tozalashlarning boshlanishiga sabab bo'ldi. Qoraqalpog'istonda bu jarayon avvaldan bir necha bosqichda olib borilgan: 1923 yilda eski hokimiyat va ma'naviy-tarbiyaviy elementlardan tozalash, 1927–1928 yillarda esa milliy intelligensiya va partiya a'zolarini qayta tartiblash [2].

Bu bosqichlar quloqlarga va qishloq aholisiga qarshi siyosatning asosini yaratdi. 1928–1929 yillardagi uchinchi bosqichda individual xo'jaliklar aniqlanib, ularning mol-mulki va yerlari kolxozlarga qo'shildi, quloqlar va ularning tarafdorlari repressiya qilindi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tadqiqot tarixiy-tahliliy usul asosida amalga oshirildi. Qoraqalpog‘istonda kollektivlashtirish siyosati haqidagi ma’lumotlar arxiv hujjatlari (QRRK fondi), tarixiy manbalar, sovet davri asarlari hamda zamonaviy tadqiqotchi olimlarning ilmiy ishlari asosida o‘rganildi. Metodologiya sifatida manbashunoslik tahlili va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi.

Muhokama

Qoraqalpog‘istonda kollektivlashtirish va quloqlarga qarshi choralar

1929 yilning avgust oyida Qoraqalpoq obkomi partiya va sovet apparatlarida tozalashlarni olib bordi. Shabbaz, Qipchoq, Taxtako‘pir va Chimboy tumanlarida quloqlar, ishonlar va otaliqlar yetakchiligida kontrrevolyutsion guruhlar aniqlangan. 124 kishi, asosan diniy va quloq elementlari, jinoiy javobgarlikka tortilib jazolangan.

Boylar ustidan qat’iy choralar ko‘rilgan, ularning yerlari musodara qilingan va soliqlar solingan. 1928–1929 yillarda 28 572 ta xo‘jalik tekshirilgan, 853 ta boy xo‘jaligiga 500–1000 rubl miqdorida soliq solingan. Boylar va ruhoniylar turli usullar bilan kolxozlashtirishga qarshi chiqqan, partiya va sovet organlari esa qat’iy choralar bilan ularning harakatlarini to‘xtatgan [1].

Ushbu tozalashlar natijasida 930 a‘zodan 150 kishi partiyadan chiqarilgan (16,3%). Bu jarayon Qoraqalpog‘istonda partiyaning yangi, asosan yosh kadrlardan iborat apparatini shakllantirishga xizmat qilgan.

11 avgust 1929 yilda Qazkraykom quloqlar va boylarni kolxozdan chiqarish hamda kolxozsozlikni tezlashtirish to‘g‘risida direktiva bergan [3]. 24 oktabrda “Sovetskaya step” gazetasida kolxozlashtirish natijalari va yangi vazifalar e‘lon qilingan. 1930 yil yanvarda esa KAOda yer-suv reformasi hamda quloqlar va dehqonlarning mol-mulki va yerlarini to‘liq olish to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

1930 yil mart–aprel oylarida quloqlar va o‘ziga to‘q kishilarga qarshi choralar olib borilib, ularning mol-mulki markazlashtirilgan va kolxozlarga qo‘shilgan. Bu jarayon mahalliy jamiyatda og‘ir ijtimoiy oqibatlariga olib kelgan. Qoraqalpog‘istonda 1929–1931 yillarda bir qator qarshilik harakatlari kuzatilgan. Taxtako‘pir va Xo‘jayli tumanlarida quloqlar va boylar rahbarligida qarshilik guruhlari tashkil etilgan. 27 sentabrda Taxtako‘pirda taxminan 300 kishi ishtirok etgan qo‘zg‘olon qayd etilgan. Bu harakatlar hukumat tomonidan shiddat bilan bostirilgan.

Natijalar

Tadqiqot natijalari kollektivlashtirish siyosati Qoraqalpog‘iston aholisining hayotida salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib kelganini ko‘rsatadi. Majburiy ko‘chirishlar, mol-mulk musodara qilinishi va qatag‘on tadbirlari aholi noroziligini kuchaytirgan.

1932–1933 yillarda kolxozlarga qo‘shilgan xo‘jaliklar ulushi hududlar bo‘yicha turlicha bo‘lgan: Tamdi – 30,1%, Chimboy – 27%, Qipchoq – 25,8%.

1927–1928 yillarda qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti inqilobgacha bo‘lgan darajadan 13,4% ga oshgan. Mahsulotning tovar qismi 1913 yildagi 5 892,6 ming rubldan 1927–1928 yillarda 8 479,7 ming rublga yetgan [4].

Kolxoz qurilishining asosiy shakllari TOZlar va artellar bo‘lgan. 1930 yilda TOZlar 75%, artellar 25% ni tashkil etgan bo‘lsa, 1932 yilda mos ravishda 70% va 30% ni tashkil qilgan. Qoraqalpog‘iston ikki zonaga bo‘lingan:

- Texnik qishloq xo‘jaligi zonasi (To‘rtko‘l, Shabbaz, Beruniy, Xo‘jayli, Qipchoq, Chimboy, Kegeyli, Qo‘ng‘irot) – asosiy vazifa paxtachilik.
- Chorvachilik zonasi (Qorao‘zak, Taxtako‘pir, Tamdi) – asosiy yo‘nalish chorvachilik.

1928–1929 yillarda qishloq xo‘jaligi mashinalari uchun 235 000 rubl, 1929–1930 yillarda esa 795 000 rubl kredit ajratilgan. 1929 yilda 136 ta suhbat, 174 ta yig‘ilish va 213 ta ma’ruza o‘tkazilib, 42 403 ta dehqon xo‘jaligi qamrab olingan [5].

Xulosa

Qoraqalpog‘istonda kollektivlashtirish siyosati 1927–1932 yillarda amalga oshirilib,

qishloq jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida chuqur o'zgarishlar keltirib chiqardi. Partiya va sovet organlari aholini safarbar qilishda asosiy rol o'ynadi. Kooperativ tarmoq va qishloq xo'jaligi texnikasini joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, boylar va quloqlarga qarshi kurash, repressiyalar hamda majburiy kolxozlashtirish jarayoni an'anaviy ijtimoiy tartibni buzdi, yer va mol-mulk markazlashtirildi hamda qishloq jamiyatining ijtimoiy tarkibi tubdan o'zgardi. Bu jarayon Qoraqalpog'istonning sovet davridagi tarixiy transformatsiyasini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А. Бекимбетов Из истории колхозного движения в Каракалпакии (1929–1932 гг.)
2. А.Жумашев, “Қарақалпақстанда коллективлестириў дәўири: тарийх бетлери”. стр 63-64
3. К. Аевзов, П. Варламов. Каракалпакстан к 10-летию Казахстана, Алма-Ата, 1930. стр 40-41
4. Журнал «Народное хозяйство Казахстана" № 11/ 12, 1928 г., Кызыл-Орда, стр. 266-268
5. ЦГА КК АССР, Фонд 105, 176; архив ишлари № 8, 456.